TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI FAROVONLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	661
Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich	
IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE MAHALLA INSTITUTION IN THE TERRITORIAL GOVERNANCE SYSTEM: MODERNIZATION OF INSTITUTIONAL AND ORGANIZATIONAL MECHANISMS.....	666
Mirbabayev Farrukh Atkhamovich	
AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI TAHLILI.....	674
Xannarov Komiljon Karimovich	
INVESTITSIYA KO'CHMAS MULKI HISOBINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	681
Maxmudov Jamshed Ashrafovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА.....	687
Навруз-Зода Бахтиёр Негматович, Мусаев Маликжон Кароматович	



TRANSFORMING UZBEKISTAN THROUGH DIGITALIZATION IN A GLOBALIZED WORLD.....	694
Narzullaeva Umidakhon Nodir qizi	
SUG'ORILADIGAN YERLARDA SUVDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	699
Elomonov Ro'zimurod Doniyor o'g'li, Abdug'aniyev Otabek Allajonovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ.....	704
Р. И. Хакимов	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHGA USLUBIY YONDOSHUVLAR .....	713
Pardayeva Ozoda Mamayunosovna	



# TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHGA USLUBIY YONDOSHUVLAR

Pardayeva Ozoda Mamayunosovna

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi – PhD, dotsent

E-mail: pardayeva\_a@gmail.com

**Annotatsiya.** Jahonda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qancha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati, mamlakat turizm iqtisodiyotidagi o‘rni, oila xo‘jaligida tadbirkorlikning asosiy turlari va yo‘nalishlari, oila daromadlarining manbalari, xarajatlarni kamaytirish yo‘llari kabi masalalar shular jumlasidandir. Maqolada muallif turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga uslubiy yondashuvlarni nazariy tahlil etgan va ilmiy dalillardan kelib chiqib, uning uslubiy asoslarini tushuntirib bergan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, turist, xizmat, oila, global, servis, tadbirkorlik, xalqaro, daromad, eksport, omil, innovatsiya, metod, endogen, ekzogen, diversifikatsiya, mintaqa.

**Abstract.** A number of scientific studies are being conducted worldwide on the development of family entrepreneurship in the tourism sector. These include issues such as the socio-economic importance of family business, its role in the tourism economy of a country, the main types and directions of entrepreneurship within family households, sources of family income, and ways to reduce expenses. In the article, the author provides a theoretical analysis of methodological approaches to the innovative development of family entrepreneurship in tourism and, based on scientific evidence, explains its methodological foundations.

**Key words:** tourism, tourist, service, family, global, service sector, entrepreneurship, international, income, export, factor, innovation, method, endogenous, exogenous, diversification, region.

**Аннотация.** В мире проводится ряд научных исследований, направленных на развитие семейного предпринимательства в сфере туризма. К ним относятся вопросы социально-экономической значимости семейного бизнеса, его роли в туристической экономике страны, основных видов и направлений предпринимательства в семейном хозяйстве, источников доходов семьи, а также путей сокращения расходов. В статье автор осуществил теоретический анализ методологических подходов к инновационному развитию семейного предпринимательства в сфере туризма и, опираясь на научные доказательства, раскрыл его методологические основы.

**Ключевые слова:** туризм, турист, услуга, семья, глобальный, сервис, предпринимательство, международный, доход, экспорт, фактор, инновация, метод, эндогенный, экзогенный, диверсификация, регион.

## KIRISH

Mamlakatimizda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, aholini ish bilan ta‘minlash, ularning farovonligini oshirish, yashash darajasi va sifatini ko‘tarish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorida “Mehnatkash xalqimizning qadimiy kasb-hunar an‘analari, ishbilarmonlik salohiyati, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish” [1] zarurligi ta‘kidlangan. Ko‘rinib turibdiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning juda ko‘plab yo‘nalishlaridan biri turistik xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaning iqtisodiy konsepsiyasi 1934-yilda avstriyalik iqtisodchi olim J.A. Shumpeter tomonidan “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli kitobida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. U “innovatsiyani yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar, yangi bozorlar va yangi xomashyo manbalarini ishlab chiqarish, ya‘ni sanoat



korxonalarini yangidan shakllantirish sifatida tasniflagan” [2]. J. Shumpeter iqtisodiyot faniga yangi iqtisodiy sikl manbai sifatida “ijodiy halokat” tushunchasini kiritib, inqirozdan chiqish yo’li sifatida innovatsiyalarni tatbiq etgan hamda uni iqtisodiy o’sish bilan bog’lagan. Bundan tashqari, bir nechta mualliflar: I. Drejer [3], J. Fagerberg [4], K. Wairmeir [5] va A. M. Hjalager [6] kabi iqtisodchi olimlar J. Shumpeter tomonidan innovatsiya va uning turlariga berilgan tasnifdan foydalanib, turizm sohasida innovatsiyalar tipologiyasini ishlab chiqqanlar.

Nazariy tahlillar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari uzoq yillardan buyon iqtisodiy tadqiqotlarning predmeti bo’lib kelganligini ko’rsatdi. Tadqiqot obyektining murakkabligi va xilma-xilligi tufayli ushbu muammolarni turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish jarayoni davom etmoqda. Bunday yondashuvlar oila iqtisodiy nazariyasini turli yo’nalishlarda rivojlantirishga qaratilgan. Bu boradagi tadqiqotlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Mahalliy iqtisodchilarimizdan M.Q. Pardayev [7], I.S. Tuxliyev [8], O’.Ya. Ostonovlar [9], hamda xorijlik iqtisodchi mutaxassislardan Chris Cooper [10], Peter F. Drucker [11], Donald Getz [12], Thomas L. Wheelen [13]lar turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning mohiyati va xususiyatlari borasida ilmiy-amaliy ahamiyatga molik tadqiqotlar olib borgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga uslubiy yondashuvlar tahlil qilindi.

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, xorijiy va O’zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o’rganish hamda tahlil qilish orqali olingan ma’lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, 2025-yilda xalqaro sayyohlar oqimi 2024-yilga nisbatan 3–5 % ga o’sishi prognoz qilingan edi. Ushbu ijobiy dinamika BMTning Turizm bo’yicha ixtisoslashgan agentligi (UN Tourism) tomonidan ishlab chiqilgan turizm ishonch indeksi ko’rsatkichlarida ham aks etib, 2025-yil uchun 130 ballni tashkil etmoqda (0 dan 200 gacha bo’lgan shkala asosida, bunda 100 ball pandemiyadan oldingi ko’rsatkichlarga teng deb qabul qilinadi). BMT Turizm bo’yicha ekspertlar guruhi tomonidan o’tkazilgan so’rov natijalariga ko’ra, respondentlarning 64 foizi 2025-yilda turizmning rivojlanish sur’atlari 2024-yilga nisbatan yaxshilanadi yoki sezilarli o’sish kuzatiladi, deb baholagan [14].

1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2019 va 2024-yillar oralig’ida global turizm sohasida sezilarli o’zgarishlar kuzatildi. 2019-yilda xalqaro turizm tushumlari 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo’lsa, 2024-yilda bu ko’rsatkich 1,4 trillion dollargacha pasayib, 6,7 % lik kamayishni ko’rsatdi. Shu bilan birga, turizmdan eksport tushumlari 1,7 trillion dollardan 1,6 trillion dollarga tushib, 5,9 % lik pasayish qayd etildi.

1-jadval. 2019-2024-yillarda turizm sohasi tiklanishining iqtisodiy dinamikasini taqqoslama tahlili [15]

Ko’rsatkichlar	2019-yil darajasi	2024-yil darajasi	O’zgarish (%)
Xalqaro turizm tushumlari	1,5 trillion dollar	1,4 trillion dollar (93%)	-6,7%
Turizmdan eksport tushumlari	1,7 trillion dollar	1,6 trillion dollar (94%)	-5,9%
Turizmning global YaIMdagi hissasi	10,3 trillion	11,1 trillion	7,77%
Turizm sohasida bandlik	334 mln kishi	348 mln kishi	4,19%
O’rtacha sayyohlik xarajatlari	1 400 kishi boshiga AQSh dollari	1 100 kishi boshiga AQSh dollari	-21,4%
Mehmonxonalar bandligi	70% (global o’rtacha)	65% (global o’rtacha)	-7,1%

Bunga qaramasdan, turizmning global yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) hissasi 10,3 trillion dollardan 11,1 trillion dollargacha o’sib, 7,77 % lik o’sishni namoyon etdi. Bu esa turizm sohasining umumiy iqtisodiy o’sishga qo’shgan hissasining ortib borayotganini ko’rsatadi. Turizm sohasidagi bandlik ham 334 million kishidan 348 million kishigacha ko’payib, 4,19 % lik o’sishni qayd etdi, bu esa sohada yangi ish o’rinlarining yaratilayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, o’rtacha sayyohlik xarajatlari 2019-yilda kishi boshiga 1400 dollardan 2024-yilda 1100 dollargacha pasayib, 21,4 % lik kamayishni ko’rsatdi. Mehmonxonalar bandligi ham 70 % dan 65 % ga tushib, 7,1 % lik pasayishni ko’rsatdi. Bu ko’rsatkichlar sayyohlarning sarf-xarajatlari va mehmonxona xizmatlaridan foydalanish darajasidagi o’zgarishlarni aks ettiradi.



Umuman olganda, 2019 va 2024-yillar oralig'ida turizm sohasidagi ba'zi ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy iqtisodiy hissa va bandlikda o'sish qayd etildi. Bu esa sohaning tiklanish va rivojlanish salohiyatini namoyon etadi.


Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga uslubiy yondashuvlar xususida, avvalo, bizgacha tadqiqot ishlarini olib borgan iqtisodchi olimlarning qarashlarini keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik. Jumladan, Y.V. Miryushkinaning tadqiqotida turizmning innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarga quyidagilar kiritilgan:

- fan-texnika taraqqiyoti darajasi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, zamonaviy qonunchilik bazasining mavjudligi va boshqa tashqi omillar;
- zarur hajmdagi tabiiy, moliyaviy va boshqa resurslarning mavjudligi;
- turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi;
- turizm bozorida mavjud vaziyat, shuningdek, raqobat darajasi va turi;
- turizm faoliyatining barcha sohalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash [16].

Shuni ta'kidlab o'tamizki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning innovatsion salohiyatiga ta'sir etuvchi eng muhim omil nafaqat barcha turdagi resurslarning kerakli hajmining mavjudligi, balki ularning sifati, tuzilishi, muvozanatligi va ulardan foydalanishning oqilonaligidir. Bu ko'rsatkichlarni yaxshilash foydalaniladigan resurslar hajmini oshirmasdan resurs salohiyatini oshirishi mumkin [17].

Turizm sohasining innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning o'zaro bog'liqligi 1-rasmda keltirilgan.

Turizm sohasining innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omil – bu tadbirkorlik hisoblanadi. Chunki har bir tadbirkor va uning foyda ko'rish maqsadi turizm tizimining takomillashish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Turizm sohasining innovatsion rivojlanishining turli bosqichlarida tadbirkorlarning foydasini ko'paytirish har doim yangi yo'nalishlarning shakllanishiga va ushbu rivojlanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Turizm sohasini innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Turizm sohasini tadbirkorlik omillarining mavjudlik maydonini tashkil etuvchi hodisalar va jarayonlar to'plami sifatida tavsiflash mumkin [18]. Bu omillar, aslida, turizmni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi, shuningdek, uni rag'batlantiradi yoki cheklaydi. Tashqi omillar turizmga jamiyat hayotidagi o'zgarishlar orqali ta'sir ko'rsatadi va turizm tizimining turli elementlari uchun turlicha ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tashqi muhitni o'rganish zarurati uning dinamikligi va murakkabligi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Tashqi muhitning murakkabligi, birinchi navbatda, u haqida yetarli miqdorda bilim olishning murakkabligi bilan izohlanadi. Eng muhim tashqi omillarga quyidagilar kiradi: tabiiy-geografik; madaniy-tarixiy; iqtisodiy; ijtimoiy-demografik; siyosiy-huquqiy; texnologik; ekologik.

Turistlar tashrif buyurish uchun muayyan hududni tanlashda turizm resurslarining asosi sifatida tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu omillar turizm sohasini rivojlantirish ko'lamini, sur'ati va yo'nalishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, mazkur omillar doimiy, nisbatan o'zgarmas xususiyatga ega bo'lib, inson tomonidan yaratilmaydi, ya'ni inson ularni yaratishi yoki yo'q qilishi mumkin emas, faqat o'z ehtiyojlariga moslashtirishi va turistik maqsadlarda samarali foydalanishi mumkin.



Iqtisodiy omillarning ta'siri (masalan, mintaqadagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi, inflyatsiya, daromadlarning o'zgarishi, ishsizlik) asosan turizm va iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalari o'rtasidagi yaqin bog'liqlik bilan izohlanadi. Shu sababli iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar, odatda, o'z fuqarolarining sayyohlik safarlari soni bo'yicha jahon bozorida yetakchilik qiladi. Davlatning iqtisodiy ahvoli nafaqat aholi daromadlariga, balki moddiy-texnika bazasi va turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasiga ham bog'liq.

Ijtimoiy omillar jamiyatning kayfiyati, ehtiyojlari, umidlari va manfaatlarini tavsiflaydi. Turizmni rivojlantirishda aholining bo'sh vaqtining ko'payishi (ish vaqtining qisqarishi, ta'til muddatlarining uzayishi) hamda turmush darajasining oshishi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonlar zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lib, insonlarning jismoniy va psixologik tiklanish ehtiyojini oshiradi. Shu jihatdan turizm ushbu ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Demografik omillar ham turizm rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aholi sonining o'sishi, uning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, yosh tarkibi, oilaviy holati va boshqa ko'rsatkichlar turistlar oqimiga bevosita ta'sir qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholi zichligi yuqori bo'lgan mamlakatlardan turistlar oqimi nisbatan yuqori bo'ladi.

Siyosiy-huquqiy omillar (ochiq chegara siyosati, soliq va kredit siyosati, ma'muriy tartiblar) turizm faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy barqarorlik turizm rivojining muhim sharti hisoblanadi.

Ekologik omillar turizmning asosiy resurs bazasini tashkil etadi. Tabiiy muhitning buzilishi turizm taklifining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ekologik muvozanatni saqlash turizmning barqaror rivojlanishi uchun zarurdir.

Texnologik omillar esa yangi xizmat turlarini yaratish, ularni bozorga olib chiqish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Transport va axborot texnologiyalarining rivojlanishi turizmni yanada ommalashtirdi.

Ichki omillar turizm tizimi doirasida shakllanadi va rivojlanadi. Ular qatoriga turizm infratuzilmasi, moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati, boshqaruv tizimi va marketing faoliyati kiradi.

Turizm rivojiga ta'sir etuvchi omillar orasida mavsumiylik alohida o'rin tutadi. Mavsumiylik turistik oqimlarning yil davomida notekis taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Uni yumshatish uchun yangi turizm mahsulotlarini yaratish, marketing strategiyalarini takomillashtirish zarur.

So'nggi yillarda turizmga bo'lgan talabni shakllantiruvchi omillar soni ortib bormoqda. Talabning diversifikatsiyalashuvi xizmatlar sifatiga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shu bois turizmni innovatsion rivojlantirishda diversifikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasida diversifikatsiya xizmat turlarini kengaytirish, yangi turizm yo'nalishlarini shakllantirish va mavjud xizmatlarni takomillashtirish orqali namoyon bo'ladi. Bu esa yangi bozorlarga chiqish va qo'shimcha mijozlarni jalb qilish imkonini beradi.

Integratsiya ham turizm rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. U turizm tizimidagi elementlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali samaradorlikni oshiradi.

B.Sh. Safarov tomonidan turistik korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatilgan [23]. Shuningdek, innovatsion faoliyatga ekzogen va endogen omillar ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [24].

BMTning Turizm bo'yicha Bosh kotibi Zurab Pololikashvili ta'kidlashicha, turizmdan tushumlarning o'sishi global iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bandlik, kichik biznes rivoji va davlat daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois turizmni barqaror rivojlantirish uchun strategik yondashuvlarni kuchaytirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm boshqaruvi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va marketing strategiyalarini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinib, barqaror turizmni rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy uslubiy yondashuvlar ketma-ketlikda tahlil etilishi, shuningdek, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalariga ta'sir etuvchi asosiy yondashuvlar aniqlanib, ularning amaliyotdagi qo'llanilish imkoniyatlari hamda rivojlantirish istiqbollari ilmiy asoslanishi lozim.

Ular turizm sohasi rivojlanishining barqarorligini ta'minlash, tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish hamda mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida turli dastur va strategiyalarni ishlab chiqish, global miqyosda turizm siyosatini shakllantirish, xalqaro standartlarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, shuningdek, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi "“Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risida” PQ-3777-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3772869?ONDATE=03.04.2024>
2. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. – Harvard University Press, USA, 1934.



3. Drejer I. Identifying innovation in surveys of services // Research Policy. – 2004. – Vol. 33. – P. 551–562.
4. Fagerberg J., Godinho M. M. Innovation and catching-up // In: Fagerberg J., Mowery D., Nelson R. (eds.) The Oxford Handbook of Innovation. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P. 514–544.
5. Weiermair K. Product improvement or innovation: What is the key to success in tourism? // Innovation and Growth in Tourism. – OECD, Paris, 2006. – P. 53–69.
6. Hjalager A. M. Repairing innovation defectiveness in tourism // Tourism Management. – 2002. – Vol. 23. – P. 465–474.
7. Qudratov G'.H., Pardayev M.Q., Xudoyberdiyev U.X., Pardayeva O.M. Oilaviy korxonalar iqtisodiyoti. – T.: "Iqtisodiyot", 2012. – 232 b.
8. Tuxliyev I.S. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2010.
9. Ostonov O'.Ya. Qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. – Samarqand: SamISI, 2023.
10. Cooper C., Fletcher J., Gilbert D., Fyall A., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. – Available at: <https://www.scribd.com/document/826905436>
11. Drucker P. F. Innovation and Entrepreneurship. – Available at: <https://www.amazon.com/Innovation-Entrepreneurship-Peter-F-Drucker/dp/0060851139>
12. Getz D. Family Business in Tourism and Hospitality. – Available at: <https://www.amazon.com/Family-Business-Tourism-Hospitality-Cabi/dp/0851998089>
13. Wheelen T. L. Strategic Management and Business Policy. – Available at: [https://books.google.co.uz/books/about/Strategic\\_Management\\_and\\_Business\\_Policy.html](https://books.google.co.uz/books/about/Strategic_Management_and_Business_Policy.html)
14. UN Tourism. Global tourism set for full recovery by end of the year with spending growing faster than arrivals. – 2024. – Available at: <https://www.unwto.org/news/global-tourism-set-for-full-recovery-by-end-of-the-year-with-spending-growing-faster-than-arrivals>
15. UN Tourism. International tourism to reach pre-pandemic levels in 2024. – August 2024. – Available at: <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-reach-pre-pandemic-levels-in-2024>
16. World Travel & Tourism Council. Economic Impact Research. – 2023. – Available at: <https://wtcc.org/research/economic-impact>
17. Statista. Number of travel and tourism jobs worldwide from 2019 to 2023. – 2023. – Available at: <https://www.statista.com/statistics/1268465>
18. Мирюшкина Ю.В. Вопросы управления инновациями в индустрии туризма // Проблемы современной экономики. – Новосибирск, 2014. – № 18. – С. 181–185.
19. Мирюшкина Ю.В. Вопросы управления инновациями в индустрии туризма.
20. Гапоненко Т.В. Управленческие решения: учебное пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – 284 с.
21. Васильева Л.В. Организационно-экономический механизм обеспечения устойчивого развития туризма в регионе: дисс. ... канд. экон. наук. – СПб.: СПбГИЭУ, 2006. – 188 с.
22. Масленникова К.В. Формирование факторов и условий повышения эффективности использования ресурсов региона для устойчивого развития туризма: дисс. ... канд. экон. наук. – СПб.: СПбГИЭУ, 2006. – 161 с.
23. Масленникова К.В. Формирование факторов и условий повышения эффективности использования ресурсов региона для устойчивого развития туризма: дисс. ... канд. экон. наук. – СПб.: СПбГИЭУ, 2006. – 161 с.
24. Степанова С.А., Наволокина А.В. Экономика предприятия туризма: учебное пособие. – СПб.: СПбГИЭУ, 2008. – Ч. 1. – 475 с.
25. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: diss. ... DSc. – Samarqand: SamISI, 2016. – B. 52–53.
26. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: diss. ... DSc. – Samarqand: SamISI, 2016. – B. 53–54.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>